

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.65.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

XUDAYQULOV FERUZ YAQUBJONOVICH

**Na⁺, Ba⁺, Mo⁺ VA O₂⁺ IONLARI YORDAMIDA IMPLANTATSIYA
QILINGANDA W VA W OKSIDLARI YUZASINING ELEKTRON
XUSUSIYATLARI**

01.04.04 – Fizik elektronika

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctoral philosophy (PhD) on
physical-mathematical sciences**

Xudayqulov Feruz Yaqubjonovich

Na⁺, Ba⁺, Mo⁺ va O₂⁺ ionlari yordamida implantatsiya qilinganda W va W oksidlari yuzasining elektron xususiyatlari 3

Худайкулов Феруз Якубжонович

Электронные свойства поверхности W и оксидов W, имплантированных ионами Na⁺, Ba⁺, Mo⁺ и O₂⁺ 23

Khudaykulov Feruz Yaqubjonovich

Electronic Properties of the W Surface and W Oxides Implanted with Na⁺, Ba⁺, Mo⁺ and O₂⁺ Ions 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.02/30.12.2019.FM.65.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

XUDAYQULOV FERUZ YAQUBJONOVICH

**Na⁺, Ba⁺, Mo⁺ VA O₂⁺ IONLARI YORDAMIDA IMPLANTATSIYA
QILINGANDA W VA W OKSIDLARI YUZASINING ELEKTRON
XUSUSIYATLARI**

01.04.04 – Fizik elektronika

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/FM721raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.iplt.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Umirzakov Baltaxodja Ermatovich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Raxmonov G'aniboy Tojiyevich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Xudoyqulov Ilyos Xolmurodovich
fizika-matematika fanlari bo'yicha PhD, kichik ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot: **Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti huzuridagi DSc.02/30.30.12.2019.FM.65.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil " 28 " 06 soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100125, Toshkent sh., Do'rmon yo'li ko'chasi 33-uy. Tel./Faks: (+99871) 262-32-54, e-mail: info@iplt.uz. Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 3 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent sh., Do'rmon yo'li ko'chasi 33-uy. Tel./Faks: (+99871) 262-31-69.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil " 14 " 06 kuni tarqatildi.
(2024 yil " 14 " 06 dagi № 3 raqamli reestr bayonnomasi).



X.B. Ashurov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d.,
professor

I.D. Yadgarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f-
m.f.d., professor



U. K. Maxmanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, f-m.f.d., kat.i.x.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bugungi kunda W va W oksidlari asosidagi ko'p qatlamli va nano o'lchamli strukturalar nano - va optoelektron qurilmalarini yaratish istiqbolli hisoblanadi. Jumladan, turli xil nanoqo'shimchalari mavjud bo'lgan WO₂/W geterostrukturalari yuqori chastotali MOYa tranzistorlar, integral sxemalar, OLED displeylar, optik o'zgargichlar va quyosh batareyalarining yangi turlarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun yuqori vakuumli termodiffuziya va ion implantatsiya usullari bilan W yuzasida W ning stexiometrik tarkibli va bir xil qalinlikdagi nano o'lchamli oksid plyonkalarini olish, shuningdek, ularning optik va emissiya xususiyatlarini hamda elektron tuzilishini o'rganish zamonaviy elektronikaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda jahonda, shu jumladan O'zbekistonda nano o'lchamli ko'pkomponentli strukturalarni olish, shuningdek ularning optik, emission va elektron xossalarni o'rganish, ular asosida yangi elektron qurilmalarni, shu jumladan quyosh batareyalarini ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy va fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda belgilangan fizik xossalarga ega nano o'lchamli ko'p qatlamli strukturalarni olish eng katta amaliy va ilmiy ahamiyatga ega. Biroq, volfram yuzasida WO₃/W va WO₂/W nanoo'lchamli fazalar va nanoo'lchamli qatlamlari hali olinmagan va ularning fizik – kimviy xossalari o'rganilmagan. Ushbu dissertatsiya ishi shu kabi dolzarb vazifalarni hal qilishga bag'ishlangan.

So'nggi vaqtlarda O'zbekiston Respublikasida lazer nurlanishining chastotasini samarali konvertatsiya qilishning yangi imkoniyatlarini o'rganishga, xususan, an'anaviy chiziqli bo'lmagan optik kristallarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega bo'lgan chiziqli bo'lmagan fotonik kristallar kabi optik nanomateriallardan foydalanishga e'tibor ortdi. Mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirish va ularni amalda qo'llashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ushbu fundamental tadqiqotlar va ishlanmalarning yo'nalishlari quyidagi: “Yangi O'zbekistonni 2023-2026 yillarga mo'ljallangan rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida” (28.01.2023 y.dagi № PF-60), “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” (29.10.2020 yildagi PF-6097) va “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida” (22.08.2019 yildagi PQ-4422), qolaversa “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida” (07.02.2017 yildagi PF-4947) qarorlarida nazarda tutilgan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi fan va texnikasini rivojlantirishning II “Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik” va III “Zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika, elektron asboblarni rivojlantirish” ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammonining o'rganilganlik darajasi. Rossiyalik olimlar O. M. Artamonov va uning shogirdlari tomonidan W(110) monokristalli ikkilamchi elektronlar spektrining tuzilishini eksperimental va nazariy jihatdan o'rganilgan. Ular sirt qatlamining energetik tuzilishini hajmiy energetik tuzilishidan farq qilishini aniqlaganlar. Can F., Kurtua X. va boshqalar W ning Sb atomlari bilan submonoqatlamli qoplamasi Sb+W ning valent elektronlarining kollektivlashishiga olib kelishini ko'rsatdi. J. Martinez-Xuarez va J. Diaz-Reyes yupqa WO₃/shisha plenkalarining taqiqlangan soha kengligining energiyasi ~2,92 eV ekanligini aniqlagan. V. Hariharan va boshqalar WO₃ ning yupqa plyonkalarini termik toblangandan so'ng, taqiqlangan zonaning kengligiga mos keladigan ~3,28 eV va 3,47 eV li ko'k nurlanish paydo bo'lishini takidlashgan. Gregor Kieslich va boshqalar shuni ko'rsatdiki, WO_{2,90} ga Ta₂O₅ aralashmasi qo'shilishi 300 K dan 1100 K gacha bo'lgan harorat oralig'ida issiqlik o'tkazuvchanligining ~30% ga pasayishiga olib kelishini, elektron xossalari deyarli o'zgarmasligini aniqlashgan. Raman Ganesan va Aharon Gedanken matritsa sifatida xitozandan foydalangan holda biomillet usuli yordamida birinchi marta WO₃ nanozarrachalarini sintez qilishgan. WO₃ nanozarrachalar kislotali muhitda hajmiy W oksidiga qaraganda to'rt baravar ko'proq vodorod chiqarish faolligini namoyish etadi. Ushbu tadqiqot qimmatbaho platinani platinaga o'xshash xususiyatlarga ega bo'lgan arzonroq material bilan almashtirishga qaratilgan.

Mualliflar Y.B. Lozoviy va boshqalar shuni ko'rsatdiki, grafen va metall dikalkogenidlardan tashqari, 2D substexiometrik WO_{3-x} maydonli tranzistorlarga (FET) asoslangan qurilmalar uchun istiqbolli yarimo'tkazgichli material sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etib kelayotganini takidlashgan.

Xuddi shu mualliflar interkalatsiyalangan Q2D β-WO₃ va H⁺ nanozarralari WO_{3-x} asosida qalinligi 10 nm ga teng yoki undan kam va sozlanishi tarmoqli oralig'i asosida maydonli tranzistor arxitekturasini ishlab chiqdilar va tadqiq qildilar. Mualliflar J. Martines-Suares va J. Diaz-Reyes volfram oksidi asosidagi nanomateriallarning sintezi, xususiyatlari va qo'llanilishini fototermik materiallarning yangi turi sifatida ko'rib chiqdilar. Mualliflar Serj Juiykov, Yevgeniy Kats va boshqalar azotning volframga ion implantatsiyasi ΓIJK tuzilishi bilan W₂N kiritish fazasining paydo bo'lishiga olib kelishini aniqladilar; kislorod implantatsiyasi tuzilishi va parametrlari bo'yicha W₂O ga o'xshash zich o'ralgan ΓIJK tuzilishga ega bo'lgan fazaning shakllanishiga olib keladi; fosfor 800–900 °S dan yuqori haroratda qo'shimcha tavlengandan so'ng ortorombik tuzilishga ega volfram fosfidi W₂R hosil bo'lishiga olib kelishini aniqladilar.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti "Umumiy fizika kafedrası" dagi "Har xil tabiatli materiallarning (metall, yarim o'tkazgich, dielektriklar) elektron va kristallik tuzilishi va xossalari kichik energiya va katta dozali ion implantatsiya va keyingi termik, IK va lazer nurlanishlar bilan qizdirish orqali maqsadli o'zgartirish" ilmiy tadqiqot yo'nalishi hamda O'zR FA Ion – plazma va lazer texnologiyalari institutida O'zR Davlat ilmiy – tadqiqot dasturi asosida F – FA – 2021 – 509 "Noorganik (Ti, W, WO_x, TiO₂, Si, SiO₂)va organik (polimerlar)

materiallarni metall ionlari bilan implantatsiyalaganda va aktiv organik birikmalar molekulari bilan adsorbtsiyalaganda yuzasida ko'p komponentli nanostrukturalarning shakllanish mexanizmlari" mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi – monokristall W(111) hamda WO₂ va WO₃ oksidli plyonkalar yuzalariga bariy, seziy va kislorod ionlarini o'tqazish va implantatsiya qilish orqali nano o'lchamli fazalar va qatlamlarning shakllanish qonuniyatlarini hamda ularning tarkibi, tuzilishi, elektron va optik xossalarini o'rganish.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Ba, Cs, BaO va CsO yupqa qatlamlari bilan adsorbtsiya qilingan W ning emission va optik xossalari o'rganildi va mexanizmlarini tushuntirish;
2. Ba⁺ ionlari bilan bombardimon qilingan W(111) yuza qatlamlarining elementar va kimyoviy tarkibi, elektron va kristall strukturasi, emission xossalari o'rganish;
3. Turli haroratlarda W(111) tagligini O₂⁺ ionlari bilan bombardimon qilish natijasida olingan WO₂ va WO₃ yupqa qatlamlarining shakllanish qonuniyatlari o'rganish. Turli qalinlikdagi oksid plenkalarini W ning turli chuqurliklarda olish usullari ishlab chiqish;
4. Termik oksidlanish usulida olingan WO₂ va WO₃ plyonkalarining shakllanish qonuniyatlari o'rganish;
5. Ba va Cs atomlarini adsorbtsiyalab va Ba⁺ ionlarini implantatsiya qilib WO₂ plyonkasining elektron tuzilishi o'rganish va asosiy mexanizmlari aniqlash;
6. Ionlar bilan implantatsiya qilingan W oksid plyonkalarining emission va optik xossalariga turli xil tashqi ta'sirlarning ta'sirini o'rganish.

Tadqiqotning ob'ekti W yuzasida termik oksidlanish va ion implantatsiya usulida olingan WO₂ va WO₃ nanoplakalari.

Tadqiqotning predmeti har xil temperaturalarida qizdirilgan W(111) taglikni O₂⁺ va Ba⁺ ionlari bilan bombardimon qilish jarayonida yupqa WO₂ va WO₃ plonkalarining hosil bo'lish qonuniyatlari va ion bombardimon qilish va termik ishlov berish natijasida fizik xossalarining o'zgarish mexanizmlari.

Tadqiqotning usullari. energiyasini xarakterli yo'qotgan elektronlar spektroskopiyasi (EXYES), ikkilamchi ionlar mass-spektroskopiyasi (IIMS), Oje – elektron spektroskopiyasi (OES), ultrabinafsha nurlar fotoelektron spektroskopiyasi (UFES), ikkilamchi elektron emissiya va fotoelektronlar kvant chiqishi koefitsientlarining energiyaga bog'liqligini o'lchash, elastik qaytgan elektronlar spektroskopiyasi (EQES).

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

1. Ba, Cs va ularning oksidlari yupqa qatlamlari adsorbtsiyasi jarayonida W ning emission va optik xossalarining o'zgarishi asosan haqiqiy ikkilamchi va fotoelektronlarning chiqish sohasining chuqurligi oshishi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Birinchi marta chiqish ishi $e\varphi$ va haqiqiy ikkilamchi elektronlarning chiqish zonalarini chuqurligi λ o'zgarishlari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlandi;
2. Ba⁺, Cs⁺ va Na⁺ ionlarini implantatsiya qilish jarayonida W atomlari bilan implantatsiya qilingan element o'rtasida kimyoviy bog'lanish

hosil bo'lmashligi aniqlandi. Elektron tuzilishi, emission va optik xususiyatlarning o'zgarishi yuza osti qatlamlarning amorfizatsiyasi, elektronlar zichligining oshishi, $\epsilon\varphi$ va λ ning kamayishi bilan bog'liqligi aniqlandi;

3. Qizdirilgan taglikka O_2^+ ionlarini implantatsiya qilish asosida W(111) ning yuza va yuza osti sohalarida nano o'lchamli WO_2 va WO_3 plyonkalarini olish usullari taklif qilindi;
4. W(111) ni termik oksidlash jarayonida WO_2 va WO_3 plyonkalarining hosil bo'lish qonuniyatlari o'rganildi;
5. Valent va o'tkazuvchanlik zonalarida elektronlarning energiya holatlari zichligi o'zgarishining asosiy mexanizmlari, energiya sohalar parametrlari, Ba va Cs ionlari adsorbtsiyasi va implantatsiyasi natijasida WO_2 va WO_3 plyonkalarining emission va optik xususiyatlari o'rganildi;
6. Ba^+ ionlari bilan implantatsiya qilingan WO_2 va WO_3 plenklarining qizdirish, elektron bombardimon qilish va lazer bilan ishlov berish natijasida emission va optik xossalari o'zgarishining asosiy qonuniyatlari o'rganildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'tayuqori vakuumli termik qayta ishlov berish va ion implantatsiya qilish usullari asosida W yuzasida bir jinsli WO_2 va WO_3 nanoplyonkalarni olish usuli taklif etildi;

Uzoq vaqt termik ishlov berish, elektron bombardimon qilish va havoda ushlab turishning volfram oksidlarining emissiyasi va optik xususiyatlariga ta'siri o'rganildi;

Birinchi marta termik oksidlash natijasida olingan $WO_2/W(111)$ va $WO_3/W(111)$ nanoplenklarining valent zonadagi elektronlar holatining zichligi haqida ma'lumot olindi va energetik soha parametrlari aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi:

Ushbu ishda barcha eksperimental ma'lumotlar elektron, ion, fotoelektron spektroskopiya va zondli mikroskopiyaning an'anaviy zamonaviy usullari majmuasidan foydalangan holda olindi. Ishda olingan natijalar zaruriy eksperimental statistika va boshqa mualliflarning eksperimental natijalariga mos keladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar W monokristallarining elektron tuzilishi, emission va optik xususiyatlarining o'zgarish mexanizmlarini aniqlashga yordam beradi. WO_2 va WO_3 plyonkalari keng sohali yarimo'tkazgich xususiyatlariga ega ekanligi aniqlandi.

Volfram oksidlarida ionlarni implantatsiya qilish paytida W – O, Ba – W – O va Ba – O nanoplyonkalarining asosiy shakllanish qonuniyatlari aniqlandi. Birinchi marta ushbu strukturalarning valent elektronlar holatining zichligi va soha parametrlari aniqlandi.

Yuza va yuza osti qatlamlarning elementar tarkibini aniqlash uchun olingan natijalardan OAJ UzKTJM, Uz kabel AJ QK, AGMK OAJ korxonalarida ishlab

chiqariladigan Cu, Al, W va Mo sanoat simlarini ishlab chiqarishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. Dissertatsiya ishi doirasida olingan metallarda miltillama razryad sharoitlarida termo diffuziyaviy ta'sirlarni va strukturaviy holatlarini baholash ilmiy tadqiqot natijalardan O'zR FA Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida 2017-2020 yillarda bajarilgan FA-Atex-2018-264 «Miltillama razryad yordamida mahsulot yuzasini tozalashda termodiffuziyaviy qatlam o'stirish usulini ishlab chiqish» nomli amaliy loyihani ilmiy-texnikaviy vazifalarini asoslashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Vitse-prezidentining № 2/255-58-son ma'lumotnomasi). Dissertatsiyaning ushbu xulosalarini amalda olingan ilmiy natijalar bilan solishtirish orqali metall sirtiga qoplama qoplashdan oldin tozalash, metall materiallar isrofini kamaytirish, qoplamaning yuqori yopishqoqligini taminlash va sirt xususiyatlarini nazorat qilish imkoniyatini oshirishga olib keldi.

Dissertatsiya ishining ba'zi natijalari "Olmaliq KMK" AJ "Nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish bo'yicha" IChB da foydalanilgan ("Olmaliq KMK" AJ "Nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish bo'yicha" IChB ishlab chiqarish bo'yicha direktor o'rinbosarining 17.01.2024 dagi ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari bo'yicha joriy etish dalolatnomasi):

- dissertatsiya ishida taklif qilingan W ni Ar^+ ionlari bilan ishlov berish va keyingi qisqa vaqtli qishdirish usuli orqali W kristallarini yuqori darajada nuqsonlardan tozalash hamda toza monokristall W namuna olish;
- dissertatsiya ishida keltirilgan vakuumda qizdirilgan taglikka O_2 molekulalarini o'tqazish usuli bilan W(111) ning yuza va yuza osti sohalarida WO_2 va WO_3 qatlamlari hosil bo'lishining optimal rejimlari ilmiy ishlab chiqarish boshqarmasida bir xil stexiometrik tarkibga ega bo'lgan WO_2 va WO_3 plenkalarini olish uchun foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 1 tasi Web of Science Core Collection, Scopus bazasidagi jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya matni 130 bet matndan, shu jumladan 53 ta rasm va 11 ta jadvaldan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va mohiyati asoslangan, tadqiqotning respublikada fan va texnika rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlari bilan o'zaro bog'liqligi keltirilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha

ilmiy tadqiqotlar haqida umumiy ma'lumot beradi, muammoni o'rganish darajasi, shakllantirilgan maqsad va vazifalar, aniqlangan ob'ektlar, mavzular va tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ularning nazariy va amaliy ahamiyati va natijalarni amalga oshirish va ishning amaliyotda qo'llanilishi, shuningdek, dissertatsiyaning ko'lami va tuzilishi to'g'risida qisqacha ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **I bobida** dissertatsiya mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhiga, ya'ni atomlar adsorbtsiyasining monokristall W tarkibi va elektron tuzilishiga ta'siri, ion – implantatsiyasining W va W oksidlari yuzasining tarkibi, tuzilishi va xususiyatlariga ta'siri keltirilgan. Bu oksidlar yuzasida hosil bo'ladigan nanofazalar va nanoplyonkalarining tarkibi, morfologiyasi, emission xossalari, kristall va elektron tuzilishini o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi.

Bundan tashqari, atomlarni changlatish va ion bombardirovkasi vaqtida WO₂ va WO₃ yupqa qatlamlarining fizik-kimyoviy, emission va optik xususiyatlarining o'zgarishi anchadan beri o'rganilishiga qaramay hali ham yetarlicha ko'rib chiqilmagan va bir qator hal qilinmagan ilmiy muammolar mavjud, bu nano o'lchamdagi strukturalarni shakllanish mexanizmlari haqidagi ilmiy g'oyalarning rivojlanishiga, shuningdek ularni yangi mikro-, opto- va nano- elektron qurilmalarni ishlab chiqarishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bizning fikrimizcha, hozirgi vaqtda W va W oksidlari uchun hal qilinmagan quyidagi muammolar keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun muhimdir:

1. aktiv metallar va ularning oksidlarining yupqa qatlamlarini adsorbtsiyalashda W monokristallarning emission va optik xususiyatlari, elektron va kristall tuzilishidagi o'zgarishlarning qonuniyatlari va mexanizmlari to'liq o'rganilmagan;
2. kichik energiyali ion implantatsiya va ketma-ket tavlaniş (последующего отжиг) vaqtida W ning yuza va yuza osti qatlamlarida nanoo'lchamli strukturalarning shakllanishi va ularning W fizik xususiyatlariga ta'siri haqida ishonchli ma'lumot yo'q;
3. o'ta yuqori vakuumda termik oksidlash va ion bombardirovka usullaridan foydalanib bir jinsli nanostrukturalar va WO₂ va WO₃ plenklarini olish imkoniyatlari o'rganilmagan. Turli usullar bilan hosil qilingan W oksidlari tarkibi va elektron tuzilishining qiyosiy taxlili o'tkazilmagan;
4. WO₂ va WO₃ nanoplenkalari qalinligining elektron tuzilishiga, emission va optik xususiyatlariga bog'liqligi, shuningdek ion bombardirovkaning oksid qatlamlari tarkibi va fizik – kimyoviy xususiyatlariga ta'siri o'rganilmagan;
5. Ba va Cs atomlari adsorbtsiyasi hamda ionlari implantatsiyasining WO₂ va WO₃ oksidlari tarkibi va elektron tuzilishiga ta'siri o'rganilmagan;
6. qizdirish, lazer bilan ishlov berish va elektron bombardirovka qilishning Ba⁺ ionlari bilan implantatsiya qilingan WO₃/W(111) ning emission va optik xususiyatlariga ta'siri o'rganilmagan.

Ushbu dolzarb ilmiy muammolarni hal qilish zarurati IIMS, OES, EQE, FES va boshqalar elektron usullari to'plamidan birgalikda foydalanish orqali

dissertatsiya ishining maqsad va vazifalarini belgilash va amalga oshirish uchun asos bo'ldi.

Dissertatsiyaning «Metall va yarimo'tkazgichlar yuzasida hosil bo'lgan nano o'lchovli tuzilmalarning fizik xususiyatlarini o'rganish va olish texnologiyasi» nomli II bobida materiallarning fizik xususiyatlarini o'rganish uchun eksperimental qurilmalarning tavsiflashga bag'ishlangan, xususan elektron va ion manbalarining tuzilishi, ultrabinafsha nurlanishli fotonlar manbai, hamda OES, EXYES, fotoelektron spektroskopiya usullari, haqida ma'lumotlar berilgan. Yuzalar morfologiyasi va panjaraning parametrlari to'g'risida ma'lumotlar olish uchun quyidagi standart qurilmalardan foydalanganmiz: REM (ISM – 6490), skanerlovchi elektron mikroskop DBE (EMR-2), tez elektronlar difraktsiyasi ASM (XE-200), atom kuchlanishli mikroskop va UV-1280 spektrofotometri.


Umuman olganda ishda qo'llaniladigan eksperimental qurilmalar yordamida quyidagi amallarni bajarish mumkin:

- W oksidli yupqa plyonkalarni termik oksidlash va ketma-ket termik sayqallab ion implantatsiya qilish usullari yordamida olish;
- olingan namunalarni Ar^+ , O_2^+ va aktiv metall ionlari bilan bombardirovka qilish;
- ion legirlangan namunalarni yuza va yuza osti qatlamlaridagi asosiy va kirishma atomlarning kontsentratsiyasini aniqlash va yuza osti qatlamlarda hosil bo'lgan kimyoviy bog'lanishlarini turini aniqlash;
- namunalar yuzasining morfologiyasini, relyefini, kristall strukturasi o'rganish;
- yuza osti qatlamlarda turli chuqurlikda hosil qilingan oksid plyonkalarning nanokristall fazalarni o'lchami va taqiqlangan zona (E_g) parametrlarining qiymatlarini baholash;
- elektron sohaning energetik tuzilishini va sohalardagi va asosiy sathlardagi elektronlarning energiya bo'yicha taqsimlanishini o'rganish;
- olingan namuna va oksid plenkalarining emissiya, elektrofizik va optik xossalarni o'rganish.

III bob «Ba ionlarini o'tqazish va implantatsiya qilishning monokristall va polikristall W namunasining tarkibi, morfologiyasi, elektron va kristall tuzilishiga ta'siri» deb nomlandi. Bu bob W kristalli yuzasining ikkilamchi va fotoelektron spektroskopiyasi, Ba atomlarini changlatib o'stirishning W tarkibi, tuzilishi va xususiyatlariga ta'siri, W tarkibining elektron va kristall tuzilishi, emission va optik xususiyatlariga Ba^+ ionlari implantatsiyasining ta'siri, W(111) yuzasining tarkibi va elektron tuzilishiga O_2^+ ionlari implantatsiyasining ta'sirlariga bag'ishlangan.

1 – rasmda $h\nu = 15,6$ eV Ba bilan $\Theta = 0; 1; 3$ va 10 monoqatlam qalinlikda qoplangan W(111) ning UFES spektrlari keltirilgan. Ko'rinib turibdiki, $\Theta \leq 1$ bo'lganda maksimumlarning energetik holati o'zgarmaydi, spektrning kengligi va yuzasi ortadi, bunda fotoelektronlarning kvant chiqishi ortadi, shuningdek $E_{sv} \approx -0,5$ eV da Ba ning maksimumlari paydo bo'ladi. $\Theta = 3$ da Ba ni xarakterlaydigan barcha maksimumlar paydo bo'ladi va W ning maksimumlari keskin kamayadi. $\Theta \approx 10$ da

fotoelektronlar spektrida faqat Ba ning maksimumlari kuzatiladi. $\Theta > 1$ da Θ oshishi bilan fotoelektronlarning kant chiqishi birdaniga kamayadi.



1-rasm. Monokristall W (111) (1 egri chiziq) va turli qalinlikdagi Θ (monosloylarda) Ba bilan qoplangan W ning UFES spektrlari, 1 – 0; 2 – 1; 3 – 3; 4 – 10.

1 – jadvalda tajribalar orqali olingan Ba, BaO, Cs va CsO bilan qoplangan W(111) uchun emission parametrlari va HIE (haqiqiy ikkilamchi elektronlar) ning chiqish soha chuqurligi λ keltirilgan. Solishtirish uchun Mo bilan qoplangan W(111) uchun ma'lumotlar ham keltirilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Cs ning emission parametr qiymatlarining o'zgarishi Ba ga qaraganda sezilarli katta. Ba va Cs oksidlarida ushbu parametrlar Ba va Cs ga qaraganda ko'proq o'zgaradi. Shuni ta'kidlash kerakki, $\Theta \leq 1$ dagi barcha o'zgarishlar $e\phi$ qiymatining o'zgarishi bilan bog'liq. Mo bilan qoplangan W da o'rganilayotgan kattaliklarning qiymati deyarli o'zgarmaydi. Bu, asosan, W va Mo elektromanfiyligining qiymati deyarli bir-biridan farq qilmasligi bilan bog'liq.


1-jadval

Ba, BaO, Cs, CsO va Mo bilan qoplangan W(111) uchun $e\phi$, δ_m , Y va λ qiymatlari


| Parametrlar | Adsorblangan atom, $\Theta \approx 1$ | | | | | W(111) |
|---------------|---------------------------------------|-----|-----|-----|-------------------|---------------------|
| | Ba | BaO | Cs | CsO | Mo | |
| $e\phi$, eV | 2,2 | 1,9 | 2,1 | 1,8 | 4,4 | 4,3 |
| δ_m | 2,9 | 2,4 | 3,0 | 3,6 | 1,42 | 1,4 |
| Y | $7 \cdot 10^{-5}$ | – | – | – | $2 \cdot 10^{-5}$ | $2,1 \cdot 10^{-5}$ |
| λ , Å | 40 | 50 | 45 | 55 | – | 25 |

2-rasmda W(111) ning $E_0 = 0,5$ va 5 keV Ba^+ ionlari bilan implantatsiya qilishdan oldingi va keyingi oje – spektrlari keltirilgan. Ko'rinib turibdiki, Ba^+ ionlarining implantatsiyasi W oje – spektrlarini sezilarli o'zgartirib yubordi. Bu o'zgarishlar ionlar energiyasi bilan bog'liq. $E_0 = 0,5$ keV bo'lganda W ning 40, 49 va 66 eV lardagi oje – piklari yo'qoladi hamda boshqa piklarning intensivligi keskin kamayadi. 38, 47, 55, 61 va 74 eV energiyali bariy piklarining hosil bo'ladi, bular mos ravishda $N_4O_1O_3$, N_5O_1V , $N_5O_2O_2$, $N_{45}O_{23}O_{23}$ va N_4O_2V oje – o'tishlar

bilan bog'liq bo'lishi mumkin. E_0 ortishi bilan Ba oje – piklarining intensivligi kamayadi, W niki esa ortadi. $E_0 = 5$ eV da W ning asosiy oje – piklari saqlanib qoldi. E'tibor bering, uglerod ($E = 270$ eV) va kislorod ($E = 506$ eV) ni xarakterlovchi piklar ion bombardirovkadan (E_0 ning barcha qiymatlarida) keyin butunlay yo'qoladi. Bu sirtning ion emirilishi (травления) bilan bog'liq [1A; c.992-996].



2 – rasm. E_0 energiyali Ba^+ ionlari bilan implantatsiya qilingan W(111) oje-spektrlari, 1 – 0 (toza W); 2 – 0,5; 3 – 5 keV [1A; c.992-996].



3 – rasm. Turli dozadagi $E_0 = 0,5$ keV energiyali Ba^+ ionlari bilan implantatsiya qilingan W ning fotoelektron spektrlari, D, sm^{-2} : 1 – 0; 2 – $5 \cdot 10^{14}$; 3 – $5 \cdot 10^{15}$; 4 – $6 \cdot 10^{16}$, $h\nu = 10,8$ eV [1A; c.992-996]

3 – rasmda W(111) ning turli dozalaridagi $E_0 = 0,5$ keV energiyali Ba^+ ionlari bilan implantatsiya qilishdan oldin va keyingi UFE spektrlari keltirilgan.

Grafikdan ionli legirlangan W namuna fotoelektronlarining energiya taqsimotidagi o'ziga xosliklari Ba da ham kuzatildi: past dozalarda spektrda matritsa, yuqori dozalarda legirlangan metall xususiyatlarini namoyon qiladi. $D = 6 \cdot 10^{16} \text{ sm}^{-2}$ dozali Ba^+ ionlari implantatsiyasidan keyin fotoelektronlar spetrining kengligi $\Delta E \approx 2 \text{ eV}$ ga ortadi, bunda yuzadagi chiqish ishi 2 eV ga kamayadi; spektr yuzasi fotoelektronlarning chiqish Y ga mos ravishda $1,5 - 2$ marta oshadi; W ning 6s- va 5d piklari intensivligi keskin kamayadi va Ba ga xos 6s- va 5p piklar paydo bo'ladi. W(111) panjarasining deformatsiyasi va yuza osti qatlamlarining tartibsizlanishi sababli ion – legirlangan piklari legirlanmagan W va Ba ga nisbatan bir oz ($0,1 - 0,2 \text{ eV}$) siljiydi. $E_0 = 0,5 \text{ keV}$ da [Ba + W] mexanik aralashmasidan iborat bir jinsli qatlamning qalinligi $\sim 30 - 35 \text{ \AA}$ ni tashkil etadi.

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, kichik energiyalarda qoplanish darajasi quyidagi tartibda bo'ladi: Ba, Na, K va Cs. Ionlar energiyasi ortib borishi bilan qoplanish darajasi (Θ , monoqatlam) og'ir ionlarga qaraganda yengil ionlarda tezroq kamayadi. Ionlar bilan ombardirovka qilish jarayonida adsorbtsiyalangan atomlarning bir qismi lokal qizdirishdagi kabi o'tqazishda (purkash) ham desorbtsiyalanishi mumkin. Agarda plyonka qalinligi ortishi bilan desorbtsiya harorati kamayishini hisobga olsak, ushbu legirlash sharoitida Θ ion turi va uning energiyasiga bog'liq holda Θ_{max} ning ma'lum bir qiymatidan oshmasligi mumkin [2A; c.278-282].


2-jadval

Ba^+ , Na^+ , K^+ va Cs^+ ionlari bilan legirlangan W yuzasida hosil bo'lgan adatom plenka qalinligining Θ taxminiy qiymatlari [2A; c.278-282]

| Θ | Ionlar energiyasi E_0 , keV | | | | | |
|----------------------|-------------------------------|-----|-----|-----|-----|-----|
| | 0,2 | 0,5 | 1,0 | 3,0 | 5,0 | 8,0 |
| Θ_{Ba} | 1,2 | 1,0 | 0,8 | 0,4 | 0,2 | 0,1 |
| Θ_{Na} | 1,2 | 1,0 | 0,7 | 0,3 | 0,1 | - |
| Θ_{K} | 1,0 | 0,8 | 0,6 | 0,3 | 0,1 | - |
| Θ_{Cs} | 0,7 | 0,6 | 0,5 | 0,3 | 0,1 | - |


Ushbu moddada desorbtsiya harorati qancha katta bo'lsa, bug'lanish harorati ham shuncha katta bo'ladi. Maslan, $\Theta \geq 1$ bo'lganda Ba, Na, K va Cs uchun bog'lanish harorati mos ravishda 151, 89, 78 va 66 kJ/molga teng. Ushbu holatda Ba taglik bilan mustahkam bog'langan va desorbtsiyalangan zarralar oqimi Ba dan Cs ga qarab ortib boradi.

Kichik nurlanish energiyalarida ($E_0 \leq 0,5 \text{ keV}$) yengil ionlar (Na^+ , K^+) sezilarli darajada ortga qaytadi, buning natijasida ularning sirt qatlamlaridagi konsentratsiyasi og'irlarnikiga (Cs) qaraganda kattaroq bo'lishi mumkin. Bundan desorbtsiya harorati ta'sirida $\Theta_{\text{Na}} > \Theta_{\text{K}} > \Theta_{\text{Cs}}$ bo'lishini ko'rish mumkin. Hisob – kitoblar shuni ko'rsatadiki, E_0 ortishi bilan yengil ionlarning kirish chuqurligi og'irlariga qaraganda sezilarli darajada tez ortadi. E_0 ortishi bilan, yuza qatlamlarida Na va K ning konsentratsiyasi Cs va Ba ga qaraganda tezroq kamayadi. Ba^+ ionlari bilan legirlaganda Θ ning juda katta bo'lishi, uning yuqori desorbtsiya harorati bilan bog'liq.



4 – rasm. $Y^{1/2}$ ning $h\nu$ ga bog'liqlik grafigi: 1 – toza W, 2 - 1 monoqatlam Ba bilan qoplangan W(111), 3 – $D = 4 \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-2}$ dozadagi $E_0 = 0,5 \text{ keV}$ energiyali Ba ionlari bilan implantatsiya qilingan W(111) [3A; c.570-573].


4 – rasmda ushbu qonunlar uchun fotoelektronlarning kvant chiqishi $Y^{1/2}$ ning $h\nu = 2 - 6 \text{ eV}$ oraliqdagi fotonlar energiyasiga bog'liqlik grafigi keltirilgan. Ushbu grafikdan volfram Ba^+ ionlari bilan implantatsiya qilinganda, $\Theta \approx 1$ monoqatlam qalinlikda o'tqazilgan Ba ga qaraganda σ va Y ortishi sezilarli katta ekanini ko'rishimiz mumkin [3A; c.570-573].




5 – rasm. W(111) ning hamda W(111) ga $D = 4 \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-2}$ dozada $E_0 = 1 \text{ keV}$ energiyali O_2^+ ionlarini implantatsiya qilish orqali olingan WO_2 va WO_3 ning oje – spektrlari

5 – rasmda W(111) ning hamda W(111) ga $D = 4 \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-2}$ dozada $E_0 = 1 \text{ keV}$ energiyali O_2^+ ionlarini implantatsiya qilish orqali olingan WO_2 va WO_3 ning oje – spektrlari keltirilgan. Bu yerda WO_2 va WO_3 plyonkalarining qalinligi $\sim 30 - 35 \text{ \AA}$ ni tashkil etadi. Implantatsiyadan keyin W ning deyarli barcha oje – piklari yo'qolib, W oksidlariga tegishli yangi piklar hosil bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Asosiy piklarning izohlari grafikda keltirilgan.

6 –rasmda $h\nu = 15,6 \text{ eV}$ da olingan W(111) va W(111) yuzasida $d = 30 \text{ \AA}$ va $d = 90 \text{ \AA}$ qalinlikdagi WO_3 bilan qoplangan plyonkalarining UFE spektrlari keltirilgan. $d = 30 \text{ \AA}$ qalinlikdagi WO_3 spektrida $E_{sv} = -1,6 \text{ eV}$; $-2,4 \text{ eV}$; $-4,8 \text{ eV}$ va $-8,1 \text{ eV}$ larda piklar hosil bo'lishini ko'rishimiz mumkin. $E_{sv} = -0,8 \text{ eV}$ dagi pik W ga tegishli, chunki plyonka qalinligi $80 - 100 \text{ \AA}$ gacha ortganda bu pik yoqoldi. Piklarning izohlari grafikda keltirilgan. E'tibor bering, bu holatda piklarning shakli va joylashuvi hamda WO_3 ning taqiqlangan soha kengligi qalinroq plyonkalardan bir oz farq qiladi (6 – rasm, 3 – egri chiziq).




6 – rasm. Monokristall W(111) namuna va turli qalinliklardagi $\text{WO}_3/\text{W}(111)$ plyonkalarining UFE spektrlari: Θ , \AA ; 1 – 0 (toza W); 2 – 30; 3 – 90.




7 – rasm. WO_3/W plenkasining $-dR/dE_p(E_p)$ – grafigi (EQE spektri)

Juda yupqa plenkalarining ($d \leq 50 \text{ \AA}$) elektron tuzilishiga taglik sezilarli darajada ta'sir qilishini ko'rishimiz mumkin. Bunda, W va WO_3 ning panjara parametrlari va kristall tuzilishlaridagi farq katta rol o'ynaydi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kichik energiya oralig'ida – $dR/dE_P(E_P)$ – grafigi, ya'ni EQE spektri plazmonlarning g'alayonlanish energiyalari va sohalararo o'tish energiyalari haqida kerakli ma'lumot beradi. 7 – rasmda qalinligi $\sim 30 \text{ \AA}$ bo'lgan WO_3 plenkasining elastik qaytgan elektronlari (EQE) spektrlari keltirilgan.

Biz 6 – va 7 – rasmlarda keltirilgan grafiklarni tahlil qilib, 8 – rasmda keltirilgan WO_3 ning taxminiy sohaviy – energetik diagrammasini hosil qildik.




8 – rasm. 30 \AA qalinlikdagi WO_3/W plyonka yuzasining energetik diagoammasi.



9 – rasm. $D = 2 \cdot 10^{18} \text{ sm}^{-2}$ to'yinish dozasi $E_0 = 40 \text{ keV}$ bo'lgan O_2^+ ionlari bilan implantatsiya qilingan qizib turgan W(111) atomlarining Θ chuqurlik bo'yicha konsentratsion tarqalish profillari, 1 – qizdirishdan oldingi, 2 – $T = 1300 \text{ K}$ qizdirgandan keyin.

9 – rasmda qizib turgan W(111) yuzasiga $D = 2 \cdot 10^{18} \text{ sm}^{-2}$ to'yinish dozasi $E_0 = 40 \text{ keV}$ energiyali O_2^+ ionlari bilan implantatsiya qilish natijasida chuqurlik Θ bo'yicha konsentratsion tarqalish profillari keltirilgan. 10 – rasmda W – WO_3 -W(111) sistemasining yon tomondan olingan REM – tasviri keltirilgan. Bunda $\text{WO}_3 \sim 8 \text{ nm}$ chuqurlikda $\sim 10,8 \text{ nm}$ qalinlikda bo'lganini ko'rishimiz mumkin.




10 – rasm. W – WO₃-W(111) sistemasining yon tomondan olingan REM – tasviri.

“WO₂/W(111) va WO₃/W(111) plyonkalarining Ba atomlarining adsorbtsiyasi (oʻtqazilishi) va ionlarining implantatsiyasi taʼsirida elektron tuzilishining, emission va optik xossalarning oʻzgarishi” deb nomlangan IV bobda Ba⁺ ionlarining implantatsiyasi va atomlarining adsorbtsiyasining W ning oksid plyonkalari WO₂ va WO₃ ning tarkibi, tuzilishi, emission va optik xossalarga taʼsiri, shuningdek ushbu xarakteristikalarining tashqi taʼsir (issiqlik, elektron bombardirovka, atmosfera havosi taʼsiri) natijasida oʻzgarishlari birinchi marta oʻrganildi.

11.a – rasmda $P = 10^{-2} \sim 5 \cdot 10^{-4}$ Pa oraliqdagi kislorodning bosimi ostida $T = 1100$ K haroratda kislorod konsentratsiyasining W oksidlanish vaqtiga bogʻliqlik grafigi keltirilgan. 11.a – rasmdan koʻrish mumkinki, P_{O_2} ning ortishi bilan WO₃/W plyonkasining hosil boʻlish vaqti kamayadi. Biroq, P_{O_2} ning 10^{-2} gacha ortishi yuzga stexiometrik tarkibining biroz yomonlashishiga olib keladi (WO₄ tipidagi oksid hosil boʻladi), $P_{O_2} \leq 10^{-3}$ Pa holatida WO₃ ning hosil boʻlish tezligi sezilarli darajada kamayadi. Bizning sharoitda $P_{O_2} \sim 5 \cdot 10^{-3} - 10^{-3}$ Pa oraligʻida optimal boʻlib chiqdi.

OES nitajalarini REM maʼlumotlari bilan birgalikda tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, oksidlanishning dastlabki bosqichida ($t \leq 50 - 60$ min) WO₃ plyonkasining orolchali oʻsishi kuzatiladi. $P_{O_2} = 5 \cdot 10^{-3}$ Pa da $t = 60 - 70$ min da $\sim 40 - 50$ Å qalinlikda bir jinsli WO₃ plyonkasi hosil boʻldi. Keyinchalik, t ning ortishi bir jinsli plyonka ortishiga olib keladi. 11.b – rasmdan $t = 60 - 70$ min oraliqda qalinlik ~ 1 Å/min tezlik bilan ortishini koʻrishimiz mumkin. $t \geq 120$ min da plenkaning oʻsish tezligi sekinlashadi va $t = 150$ min da $d_{WO_3} = 120$ Å boʻladi. $t \geq 150$ min.da d sekin – asta monoton ortib boradi [4A; c.316-320].




11 – rasmi. Kislorodning har xil partial bosimlarida $T = 1100$ K da O ning yuzaviy konsentratsiyasining W oksidlanish vaqtiga bog'liqlik grafigi (a) va $5 \cdot 10^{-3}$ Pa bosimli kislorod bosimi ostida $T = 1100$ K da WO_3 plyonkasining $W(111)$ oksidlanish vaqtiga bog'liqlik grafigi (b) [4A; c.316-320].

3 – jadval

$D = 250$ Å qalinlikdagi $W(111)$, $WO_3/W(111)$ va $WO_2/W(111)$ larning sohaviy – energetik parametrlari [4A; c.316-320].

| Parametrlar | E_V , eV | E_F , eV | E_g , eV | χ , eV |
|----------------|------------|------------|------------|-------------|
| Namuna | | | | |
| $W(111)$ | 4,3 | 4,3 | 0 | 4,3 |
| $WO_3G'W(111)$ | 6,2 | 4,3 | 2,8 | 3,4 |
| $WO_2G'W(111)$ | 5,9 | 3,8 | 3,2 | 2,7 |



12 – rasmi. Θ dagi Ba^0 Q WO_3 sistemasining fotoelektron spektrlari, Θ , atom qalinlikda: 1 – 0; 2 – 0,5; 3 – 1,0.

UFES spektrlari, $R(E_1)$ va $\delta(E_1)$ bog'liqliklarini tahlil qilish asosida WO_3 plyonkasining energetik soha parametrlari aniqlandi (3 - jadval). Solishtirish uchun bu yerda $W(111)$ va WO_2 plyonkalarining sohaviy parametrlari keltirilgan [4A; c.316-320].

Jadvaldan WO_2 va WO_3 plyonkalarining keng sohali yarim o'tkazgich ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, Ba va Cs atomlarini $\Theta \leq 1$ atom qalinligida adsorbtsiya qilingan vaqtda W yuza qatlamlarining tarkibi va strukturasi o'zgarmaydi. Shuning uchun $Ba^0 + WO_3$ sistemasining barcha emission va optik xususiyatlarining yuza κ sining

kamayishi bilan bog'liq. Bular HIE va FE chiqish zonolari chuqurligining ortishiga olib keladi. Hisob – kitoblar quyidagi formulaga muvofiq amalga oshiriladi:

$$\lambda_q = \frac{5,2 \cdot 10^{-6} \cdot A(Z_{eff})}{\rho \cdot Z_{eff}} E_{rm}^{1,4} \quad (1)$$


Toza WO_2 uchun $\lambda \approx 150 - 200 \text{ \AA}$ ni tashkil qildi.

4 – jadval

| O'rganilayotgan namuna | Soha parametrlari, eV | | | | | | σ_m | Y | $\lambda, \text{ \AA}$ |
|-----------------------------|-----------------------|-------|-------|----------|-----------|-----------|------------|-------------------|------------------------|
| | E_V | E_F | E_g | κ | E_{pr1} | E_{pr2} | | | |
| WO_3/W | 6,2 | 4,3 | 2,8 | 3,4 | 4,6 | 5,9 | 2,9 | $3 \cdot 10^{-3}$ | 150-200 |
| $Ba^0 + WO_3$ $\Theta=1$ | 3,4 | 1,5 | 2,8 | 0,6 | 1,8 | 3,1 | 4,6 | $9 \cdot 10^{-3}$ | 250-300 |

4 – jadvalda 1 monoqatlam qalinlikda Ba bilan qoplangan WO_2 va WO_3 plenkalarining energetik soha parametrlarining σ_m , Y va λ qiymatlari keltirilgan.

Ushbu jadval asosida WO_3 va 1 monoqatlam qalinlikda Ba bilan qoplangan WO_3 plenkalarining taxminiy sohaviy energetik diagrammasini qurish mumkin (13 – rasm).




13 – rasm. WO_3 (a) va 1 monoqatlam qalinlikda Ba bilan qoplangan WO_3 (b) sirt plyonkalarining taxminiy sohaviy energetik diagrammasi.

13 – rasmdan ~ 1 qatlam Ba^+ o'tqazilgandan keyin $\kappa \sim 2,8 \text{ eV}$ ga kamayishini ko'rishimiz mumkin. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bunda E_g va kirishma elementlarining energetik holati E_1 va E_2 deyarli o'zgarmaydi.

14 – rasmda WO_2 va $D = 2 \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-2}$ dozada $E_0 = 1 \text{ keV}$ energiyali Ba^+ ionlari bilan implantatsiya qilingan WO_2 oje – spektrlarining boshlang'ich qismi keltirilgan. Ion – implantatsiya qilingandan keyin WO_2 oje – spektrlarining holati va shakli sezilarli darajada o'zgarishini va yangi piklar hosil bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Oje - , XEYE (XII $\Theta\Theta$) va fotoelektron spektrlarni tahlil qilib, bu o'zgarishlar W – O, Ba – O – W, Ba – O tipidagi bog'larning hosil bo'lishi va Ba ning kimyoviy bog' hosil qilmagan atomlari mavjudligi bilan bog'liq. Bu holatda

yuzada $\sim 2 - 3$ atom qatlami qalinligida BaO qatlami hosil bo'ladi [4A; c.316-320].



14 – rasm. W (1 – egri chiziq); WO₂ va $D = 2 \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-2}$ dozada $E_0 = 1 \text{ keV}$ energiyali Ba⁺ ionlari bilan implantatsiya qilingan WO₂ ning oje – spektrlari [4A; c.316-320].

Amaliy nuqtai nazardan, haroratning ortishi, tok yuklamasi, qurilmadagi qoldiq gaz va atmosfera havosi ta'sirida emitter IE (ikkilamchi elektron) xususiyatlarining barqarorligi masalasini aniqlashtirish juda muhimdir.

WO₃ kichik energiyali ionlar bilan legirlangan namunalarning IE (BƏ) va FE – xususiyatlari $T = 700 \text{ K}$ harorat hamda $j_e = 2 \text{ mA} \cdot \text{sm}^{-2}$ tok zichligigacha o'zgaraydi. Yuqori energiyali ionlar bilan legirlangan namunalarni $T = 800 \text{ K}$ hamda tok zichligi $j_e = 3 - 4 \text{ mA} \cdot \text{sm}^{-2}$ gacha bo'lgan elektron bilan bombardimon qilinganda σ_m va Y qiymatlarining ortishini kuzatish mumkin. Ushbu emitterlarning emission samaradorligi $T = 1100 \text{ K}$ gacha qizdirilganda va tok zichligi $j_e = 7 - 8 \text{ mA} \cdot \text{sm}^{-2}$ gacha bo'lgan elektronlar bilan bombardimon qilinganda ham uzoq vaqtgacha saqlanib qoladi.

XULOSA

1. Yaxshi tozalangan W namunaning valent sohasida 6s ($E_{sv} \approx -1,8 \text{ eV}$) va 5d ($E_{sv} \approx -4,3 \text{ eV}$) holatidan elektronlarning g'alayonlanishi tufayli ikkita maksimum hosil bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Burchak bog'liqligi σ va η ni o'rganish ularning E_R energiyasiga bog'liq bo'lmagan 200 – 1000 eV oralig'ida bir qator maksimum va minimumlari borligini ko'rsatdi. $E_R \approx 350 - 400 \text{ eV}$ da asosiy maksimumlarning inversiyasi sodir bo'ladi.

2. Ba, Cs va har xil qalinlikda oksilari bilan qoplangan W(111) uchun elektronlarning chiqishi ishi va HIE (IBƏ) λ va FE chiqish soha chuqurligi orasidagi o'zaro bog'liqliklar aniqlandi. $\Theta \approx 1$ monoqatlamda λ ning qiymati ortadi, $\Theta \geq 1$ da kamayadi. Ba qatlamlarining emission samaradorligi W emission samaradorligiga qaraganda sezilarli darajada past ekanligi eksperimental ravishda isbotlandi.

3. Yuqori dozadagi $E_0 \leq 3 - 4$ keV energiyali Ba ionlari implantatsiyasi vaqtida [Ba + W] tipidagi intermetalik birikmalar hosil bo'lmaydi. Bundan tashqari, yuqori haroratli implantatsiyada sayqallash vaqtida ham bu kabi birikmalar hosil bo'lishi kuzatilmaydi. Ion implantatsiyasidan keyin W ning σ_m va Y qiymatlarining oshishi $e\phi$ ning pasayishi va ion – implantatsiya qilingan qatlamlarning elektron zichligining oshishi bilan izohlanadi.

4. Qizib turgan W taglikka O_2^+ ionlarini implantatsiya qilish usuli bilan W ning yuza va osti qatlamlarida bir jinsli WO_2 va WO_3 nanopleyka va nanoqatlamlari olindi. Birinchi marta valent elektronlarning zichlik holatlari o'rganildi va olingan nanostrukturalarning energiya zonalari parametrlari aniqlandi.

5. O'ta yuqori vakuumli qurilmada W(111) ni termik oksidlantirish yo'li bilan turli qalinlikdagi WO_2 va WO_3 plenkalari olindi. Oksidlanishning dastlabki bosqichida oksidli plenkalarning orolchali o'sishi kuzatiladi. Eksperimental natijalar shuni ko'rsatdiki, asosan $R_{O_2} \approx (1 - 5) \times 10^{-3}$ Pa bosim ostidagi kislorod atmosferasida taglikning Tq1100 K haroratida WO_3 plenkalari hosil bo'ldi, T = 1300 K da esa WO_2 plenkalari hosil bo'ldi. WO_3 va WO_2 plenkalarning keng sohali yarim o'tkazgich xususiyatlariga ega ekanligi aniqlandi.

6. Birinchi marta valent sohasidagi elektronlar holatining zichligi haqida ma'lumot olindi va termik oksidlanish orqali olingan WO_2/W (111) va $WO_3/W(111)$ nanoplekalarining energetik soha parametrlari aniqlandi.

7. Ba^+ ionlarini WO_2 ga implantatsiya qilganda, W – O, Ba – W – O va Ba – O tipidagi kimviy bog'lar hosil bo'lishi kuzatildi. Ushbu birikmalarning shakllanishi WO_2 sirtga yaqin qatlamlarining emissiya samaradorligining pasayishiga olib keladi va σ_m va Y qiymatlarining oshishi sirt chiqish ishining pasayishi bilan izohlanadi.

8. Volfram oksidlarining emission va optik xususiyatlariga issiqlik bilan ishlov berish, elektron bombardimon qilish va havo ta'siri o'rganildi. Ion implantatsiya qilingan WO_3 namunalari issiqlik bilan ishlov berish va elektron bombardimon qilish jarayonida quyidagi jarayonlar sodir bo'lishi mumkin: implantatsiya qilingan kirishma atomlarining sirtga tarqalishi va ularning kislorod bilan birikmasi, plenka materialining migratsiyasi va desorbsiyasi, dissotsiatsiya mahsulotlarining bug'lanishi natijasida oksidlarning dissotsiatsiyasi, nuqsonlarni sayqallash, emitentlarning IE va FE xususiyatlarining barqarorligiga salbiy yoki ijobiy ta'sir ko'rsatish. Salbiylarga quyidagilar kiradi: bug'lanish (shuningdek migratsiya), oksid plenkasining dissotsiatsiyasi, kislorod desorbsiyasi va sirtni metall komponent bilan boyitish. Diffuziya qilingan aralashmalarning sirtga tarqalishi va ularning kislorod bilan bog'lanishi jarayonlari ijobiydir. Ion – legirlangan namunalarning emissiya xususiyatlarining barqarorligi ushbu jarayonlarning barchasi o'rtasida dinamik muvozanatni o'rnatish bilan bog'liq va optimal ish rejimini tanlash orqali erishiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.FM.65.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ ИОННО-
ПЛАЗМЕННЫХ И ЛАЗЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ИСЛАМА КАРИМОВА**

ХУДАЙКУЛОВ ФЕРУЗ ЯКУБЖОНОВИЧ

**ЭЛЕКТРОННЫЕ СВОЙСТВА ПОВЕРХНОСТИ W И ОКСИДОВ W,
ИМПЛАНТИРОВАННЫХ ИОНАМИ Na⁺, Ba⁺, Mo⁺ И O₂⁺**

01.04.04 – Физическая электроника

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрировано в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № В2022.2.PhD/FM721.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете имени Ислама Каримова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице по адресу www.iplt.uz и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» по адресу www.ziynet.uz.

Научный руководитель: **Умирзаков Болтаходжа Ерматович**
доктор физико-математических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Рахманов Ганибой Тоджиевич**
доктор физико-математических наук, профессор

Худойкулов Илс Холмурадович
доктор философии по физико-математическим наукам PhD, м.н.с.

Ведущая организация: **Ургенчский Государственный Университет**

Защита диссертации состоится « 28 » 06 2024 г. в 16⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.FM.65.01 при Институте ионно-плазменных и лазерных технологий по адресу: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули 33. Тел./Факс: (99871) 262–32–54, e-mail: info@iplt.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института ионно-плазменных и лазерных технологий (зарегистрирована за № 3) по адресу: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули 33. Тел./Факс: (99871) 262–32–54.

Автореферат диссертации разослан « 14 » 06 2024 г.
(протокол реестра № 3 от « 14 » 06 2024 г.)



Х.Б.Ашуров

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

И.Д.Ядгаров

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор



У.К.Махманов

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., с.н.с.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день в мире многослойные системы и наноразмерные структуры на основе W и оксидов W имеют перспективы в создании приборов нано- и оптоэлектроники. В частности, многослойные системы WO_2/W с различными нановключениями служат основой при разработке новых видов высокочастотных МОП транзисторов, интегральных схем, OLED-дисплеев, оптических преобразователей и солнечных элементов. В связи с этим получение наноразмерных оксидов W на поверхности W стехиометрического состава и одинаковой толщины методами высоковакуумной термодиффузии и ионной имплантации, а также изучение их оптических и эмиссионных свойств, электронной структуры являются одной из актуальных задач современной электроники.

В мире, в том числе в Узбекистане в последние годы активно проводятся прикладные и фундаментальные исследования, связанные с получением наноразмерных многокомпонентных слоистых структур, имеющих перспективы в создании новых приборов электронной техники, в том числе солнечной энергетики, а также изучения их оптических, эмиссионных и электронных свойств.

В Узбекистане наибольшее прикладное и научное значения имеет создание наноразмерных многослойных структур с заданными физическими свойствами. Однако, на сегодняшний день наноразмерные фазы и слои наноразмерных WO_2/W и WO_3/W на основе вольфрама не получены и их физико-химические свойства не изучены. Поэтому данная диссертационная работа посвящена решению актуальных задач.

